

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT-IJROIYA KODEksi**  
**UMUMIY QISM**  
**I BO'LIM. ASOSIY QOIDALAR**  
**1 BOB. UMUMIY QOIDALAR**

*Oldingi tahrirga qarang.*

**1-modda. Jinoyat-ijroiya qonunchiligi**

*(1-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoyat-ijroiya qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasiga** asoslanadi hamda ushbu Kodeksdan, shuningdek unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat bo'ladi.

*(1-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoyat-ijroiya qonunchiligi:

*(1-modda ikkinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)*

jinoiy jazoni, boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etish prinsiplari, tartibi va shartlarini;

mahkumlarning huquqiy maqomini;

mahkumlarni axloqan tuzatish vositalari hamda ularni qo'llash tartibini;

mahkumlarni jazoni o'tashdan ozod qilish tartibini;

jazoni ijro etuvchi muassasa va organlar faoliyati tartibini;

mahkumlarni axloqan tuzatishda davlat hokimiyati va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, korxona, muassasa, tashkilotlarning, jamoat birlashmalari va fuqarolarning ishtirokini belgilaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

**2-modda. Jinoyat-ijroiya qonunchiligining vazifasi**

Jinoyat-ijroiya qonunchiligining vazifasi jazo ijrosini ta'minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

*(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**3-modda. Jinoyat-ijroiya qonunchiligining amal qilishi**

Jinoyat-ijroiya qonunchiligi O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llaniladi.

Jazoni ijro etish va mahkumlarni axloqan tuzatish vositalari amalda bo'lgan qonunchilikka muvofiq qo'llaniladi.

*(3-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**4-modda. Jinoyat-ijroiya qonunchiligi va xalqaro-huquqiy hujjatlar**

Jinoyat-ijroiya qonunchiligi xalqaro huquqning jazoni ijro etish va mahkumlar bilan muomalada bo'lishga taalluqli prinsiplari va normalarini inobatga oladi.

Jinoyat-ijroiya qonunchiligining normalari mahkumlarni qiynoqqa solish va boshqa g'ayriinsoniy yoki kamsituvchi muomala turlaridan himoya qilish to'g'risidagi xalqaro hujjatlarga zid

bo'lishi mumkin emas.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida jinoyat-ijroiya qonunchiligidan nazarda tutilganidan boshqacha qoidalari belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomaning qoidalari qo'llaniladi.

(4-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y, 03/21/683/0375-soni)

### **5-modda. Jazoni ijro etish asosi**

Jazoni ijro etish uchun sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi yoki qarori, shuningdek amnistiya yoki avf akti asos bo'ladi.

*Oldingi tahririga qarang.*

### **6-modda. Jinoyat-ijroiya qonunchiligining prinsiplari**

Jinoyat-ijroiya qonunchiligi qonuniylik, adolat, insonparvarlik, demokratizm, jazoni ijro etishda differensiatsiya va individuallashtirishga riosa etish, majburlov vositalarini oqilona qo'llash va mahkumlarning qonunga itoatkor xulq-atvorini rag'batlantirish prinsiplariga asoslanadi.

(6-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y, 03/21/683/0375-soni)

### **7-modda. Mahkumni axloqan tuzatish. Axloqan tuzatishning asosiy vositalari**

Mahkumni axloqan tuzatish — unda qonunga itoatkor xulq-atvorni, insonga, jamiyatga, mehnatga, jamiyat turmushi qoidalari va an'analariga hurmat munosabatini shakllantirishdan iborat.

Mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositalariga jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi), ijtimoiy-foydali mehnat, tarbiyaviy ish, umumiyligi va hunar ta'limi, kasb tayyorgarligi va jamoat ta'siri kiradi.

Axloqan tuzatish vositalari jazo turini, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, shuningdek mahkumning shaxsi va xulq-atvorini inobatga olgan holda qo'llaniladi

## **2-BOB. MAHKUMLARNING HUQUQIY HOLATI**

### **8-modda. Mahkumlar huquqiy holatining asoslari**

Mahkumlar, ushbu Kodeks va boshqa qonunlarda belgilangan istisno hamda cheklashlar inobatga olingan holda, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquqlar, erkinliklarga ega bo'ladilar va majburiyatlarni bajaradilar. Mahkum ajnabiyligi fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan huquqlar, erkinliklarga ega bo'lishlari va majburiyatlarni bajarishlari mumkin.

Mahkumlarning huquqlari va majburiyatlari muayyan jazo turini ijro etish tartibi va shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

### **9-modda. Mahkumlarning asosiy huquqlari**

Mahkumlar quyidagi huquqlarga ega:

jazoni o'tash tartibi va shartlari to'g'risida, o'z huquqlari va majburiyatlari haqida axborot olish;

jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyatiga, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalariga o'z ona tilida yoki boshqa tilda taklif, ariza va shikoyatlar bilan murojaat etish;

*Oldingi tahririga qarang.*

o'z taklif, ariza va shikoyatlariga murojaat etilgan tilda javob olish. Murojaat etilgan tilda javob berishning iloji bo'lmagan taqdirda javob O'zbekiston Respublikasining davlat tilida beriladi. Javobni intizomiy qismiga jo'natish va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs murojaat etgan tilga tarjima qilib berish jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ tomonidan ta'minlanadi;

(9-moddaning birinchi qismi to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdaggi O'RQ-421-soni Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y, 13-soni, 194-modda)

tushuntirish berish hamda yozishmalar olib borish, zarur hollarda tarjimonning xizmatidan foydalanish;

o'quv, badiiy va boshqa xil axborot materiallaridan foydalanish;

sog'lig'ini saqlash, shu jumladan tibbiy xulosaga ko'ra ambulatoriya-poliklinika va statsionar sharoitda tibbiy yordam olish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

ob-havo sharoiti yo'l qo'ysa, ishdan bo'sh vaqtida toza havoda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish;

jazoni ijro etish muassasining psixologik xizmat ko'rsatish xodimlari tomonidan ko'rsatiladigan psixologik yordamni olish. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning psixologik yordam ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etishi faqat ularning roziligi bilan amalga oshiriladi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

mehnat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq xavfsiz mehnat sharoitiga ega bo'lish, dam olish, ta'tilga chiqish, shuningdek mehnatiga haq to'lanishi;

(9-modda birinchi qismining o'ninchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

ijtimoiy ta'minot, shu jumladan qonunchilikka muvofiq pensiya olish.

(9-modda birinchi qismining o'n birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Mahkum ajnabiy fuqarolar shuningdek o'z davlatlarining diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini bilan, O'zbekiston Respublikasida diplomatiya va konsullik muassasalarini bo'lmagan mamlakatlarning fuqarolari esa, ularning manfaatlarini himoya qilishni o'z zimmasiga olgan davlatning diplomatiya vakolatxonalarini bilan aloqa qilib turish huquqiga ega.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovlarda hamda referendumda ishtirok etish huquqiga ega.

(9-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-sentabrdagi O'RQ-563-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019-y., 03/19/563/3685-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

Mahkumlarning huquqlarini ro'yobga chiqarish tartibi ushbu Kodeks, boshqa qonunchilik bilan belgilanadi.

(9-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **10-modda. Yuridik yordam olish huquqini ta'minlash**

Mahkumlar advokatlardan malakali yuridik yordam olish huquqiga ega.

Yuridik yordam olish uchun advokatlar bilan xoli uchrashuvlar mahkumlarga ularning arizasiga yoki advokatning iltimosnomasiga ko'ra beriladi.

Advokat bilan uchrashuvni mahkumning o'zi rad etganligi sababli advokatning mahkum yuridik yordam olishi uchun u bilan uchrashuv berilishi to'g'risidagi iltimosnomasini qanoatlantirish rad etilganligi advokat mahkum bilan xoli suhbatlashganidan keyin tasdiqlanishi kerak, bu haqda bayonna ma'muriyatining vakili tomonidan imzolanadi.

Mahkumlarning advokatlar bilan uchrashuvlari ushbu Kodeksda belgilangan uchrashuvlar soni hisobiga kirmaydi, bunday uchrashuvlari soni va muddati cheklanmaydi.

Yuridik yordam ko'rsatilayotganda advokat quyidagi huquqlarga ega:

jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining, prokurorning, sudning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat berish;

jazoni ijro etish muassasasi yoki organi boshlig'i shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan xavfsizlik choralarini qo'llaydi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Mahkumlarning advokatlar bilan uchrashuvlar o'tkazish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

(10-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni  
Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

### **11-modda. Mahkumlarning shaxsiy xavfsizlik huquqi**

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Mahkum shaxsiy xavfsizlik huquqiga ega.

Intizomiy qismga jo'natishga yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning shaxsiy xavfsizligiga tahdid yuzaga kelgan taqdirda, u o'z shaxsiy xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi ariza (xabar) bilan jazoni ijro etish muassasasining yoki organining har qanday xodimiga og'zaki yoki yozma ravishda murojaat qilishga haqli. Mahkumning arizasini (xabarini) qabul qilgan xodim zudlik bilan uni jazoni ijro etish muassasasining yoki organining boshlig'iga taqdim etadi.

Mahkumning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi arizasi (xabari) mahkumlarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi arizalarini (xabarlarini) qayd etish kitobida jazoni ijro etish muassasasining yoki organining mas'ul shaxsi tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Jazoni ijro etish muassasasi yoki organi boshlig'i shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi arizani (xabarni) olgandan so'ng mahkumni xavfsiz joyga vaqtinchalik joylashtirishi shart.

Jazoni ijro etish muassasasi yoki organi boshlig'i shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi arizani (xabarni) ko'rib chiqadi va mahkumga nisbatan xavfsizlik choralarini qo'llash to'g'risida yoxud ularni qo'llashni rad etish haqida uch sutka ichida qaror qabul qiladi. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda mahkumga nisbatan xavfsizlik choralarini qo'llash to'g'risidagi qaror darhol qabul qilinadi.

Mahkum qabul qilingan qaror bilan imzo qo'ydirib tanishtiriladi.

Xavfsizlik choralarini qo'llash to'g'risidagi yoki ularni qo'llashni rad etish haqidagi qaror ustidan yuqori turuvchi organga, prokurorga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin. Shikoyat berilgan paytdan e'tiboran yigirma to'rt soat ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Jazoni ijro etish muassasasi yoki organi boshlig'i mahkumning xavfsizligini ta'minlash maqsadida "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan xavfsizlik choralarini qo'llaydi.

Xavfsiz joyga o'tkazilgan mahkum jazoni bu yerga o'tkazilguniga qadar belgilangan saqlash sharoitlarida o'taydi.

(11-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-iyundagi O'RQ-625-soni  
Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.07.2020-y., 03/20/625/1007-soni)

### **12-modda. Mahkumlarning vijdon erkinligini ta'minlash**

Mahkumlarga vijdon erkinligi kafolatlanadi. Ular har qanday denga e'tiqod qilishga yoki hech qanday denga e'tiqod qilmaslikka haqli.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan shaxslar huzuriga, ularning iltimosiga ko'ra, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan diniy birlashmalarning ruhoniylari taklif etiladi. Mahkumlarga diniy rasm-rusumlarni ado etishga, ibodat uchun kerakli narsalardan va diniy adabiyotlardan foydalanishga ruxsat etiladi.

(12-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagagi O'RQ-421-soni  
Qonuni tahririda — O'RQHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

(12-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagagi O'RQ-99-soni  
Qonuni bilan chiqarilgan — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 248-modda)

Diniy rasm-rusumlarni ado etish ixtiyoriy bo'lib, bu narsa jazoni ijro etuvchi muassasaning ichki tartib qoidalarini buzmasligi, shuningdek boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitmasligi lozim.

### **13-modda. Mahkumlarning asosiy majburiyatları**

Mahkumlar:

jazoni o'tash tartibi va shartlariga rioxat etishga;

jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyatining qonunga asoslangan talablarini bajarishga majburdirlar.

Mahkumlarning o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarmasligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

### **3-BOB. JAZOLARNI VA BOSHQA JINOYAT-HUQUQIY TA'SIR ChORALARINI IJRO ETUVCHI MUASSASALAR VA ORGANLAR**

#### **14-modda. Jazolarni ijro etuvchi muassasalar va organlar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jarima tariqasidagi jazo O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan ijro etiladi.

*(14-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 16-oktabrdagi O'RQ-448-soni Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2017-y.)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ichki ishlar organlari tomonidan yoki sud belgilaydigan boshqa organ tomonidan ijro etiladi. Muayyan huquqdan mahrum qilish to'g'risidagi hukm talabi mahkumning ish joyidagi ma'muriyat tomonidan, shuningdek tegishli faoliyat turlari bilan shug'ullanishga berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organlar tomonidan ijro etiladi.

*(14-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdaggi O'RQ-421-soni Qonuni tahririda — O'RQHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

Harbiy xizmatchilarga nisbatan:

xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazo — harbiy xizmatchi xizmatni o'tayotgan joydagi harbiy qismlarning (muassasalarning) qo'mondonligi tomonidan;

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(14-moddaning uchinchi qismi uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdaggi O'RQ-421-soni Qonuniga asosan chiqarilgan — O'RQHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)*

intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazo — maxsus tashkil etilgan harbiy qismlar tomonidan ijro etiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazo mazkur unvonni bergen organ tomonidan ijro etiladi.

*(14-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustdaggi 535-II-soni Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003-y., 9-10-son, 149-modda)*

#### **15-modda. Boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etuvchi muassasalar va organlar**

Shartli hukm qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat ichki ishlar organlari, harbiy xizmatchilarga nisbatan esa — ular xizmatni o'tayotgan joydagi harbiy qismlar (muassasalar) qo'mondonligi tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralar:

*Oldingi tahrirga qarang.*

ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan — sog'lijni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan;

*(15-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-sentabrdagi O'RQ-567-soni Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

alkogolizmga, giyohvandlikka yoki zaharvandlikka yo'liqqan yoxud ruhiy holati aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda buzilgan mahkumlarga nisbatan — sog'lijni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda esa, jazoni ijro etish